

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAViy-MA'RIFIY VA TA'LIM  
SOHALARDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY  
YO'NALISHLARI VA NATIJALARI**

*Pardayeva Yulduz*

*TDPU Gumanitar fanlar fakulteti tarix yo'nalishi*

*4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda 2017-yildan buyon amalga oshirilgan islohotlar, ta'lim sohasiga qaratilayotgan e'tibor, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar xususida yoritib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, yoshlar, islohot, kontrakt.

**Annotation:** The article highlights the reforms implemented in Uzbekistan since 2017, the attention paid to the education sector, and the opportunities given to young people.

**Key words:** education, youth, reform, contract.

**Аннотация:** В статье освещены реформы, реализуемые в Узбекистане с 2017 года, внимание, уделяемое сфере образования, а также возможности, предоставляемые молодежи.

**Ключевые слова:** образование, молодежь, реформа, контракт.

Davlatning rivojlanishi ta'lim tizimi rivoji bilan belgilanar ekan, yurtimizda bu sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarni sifatli ta'lim olishi, bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashi, ilg'or zamonaviy texnikalarni amalyotda qo'llay olishi borasida tizimli ishlar olib borilyapti. Tegishli huquqiy baza yaratilib, prezident farmonlari, qarorlari bilan boyitilyapti.

2017-yildan ko'pgina sohalarda yangi davr boshlandi. Jumladan, ta'lim sohasida ham qator islohotlar davri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3183 sonli qarori asosida 10 yillik tanaffusdan so'ng yana sirtqi ta'lim tizimi tiklandi.<sup>1</sup> Bu ayni kutilgan qaror edi. Ushbu qaror ko'plab malakali kadrlarni ishdan ajralmagan holda ta'lim olib, olish ma'lumotli bo'lishiga zamin yaratdi. Sirtqi bo'limda o'qiyotgan talabalarga o'quv ishlarini bajarish vaqtida ularning oylik maoshlari asosiy ish joyida saqlangan holda bir o'quv yilida ikki marta bir oydan o'quv ta'tillari beriladigan bo'ldi. Bu o'z o'rnida talabaning iqtisodiy ahvoli yomonlashmasligining kafilidir. Pedagogika yo'nalishida sirtqi ta'limda o'qiyotgan

<sup>1</sup> "Xalq so'zi" gazetasining 2017-yil 10-avgustdagi 157-sonida e'lon qilingan

talaba ham o`qib, ham maktabda ishlash bilan bir qatorda amaliyot o`tash imkoniyatiga ega bo`ladi. Oliy ta`limda olgan kasbiy bilimlarini maktabda qo`llab, o`z tajribasini orttiradi.

Pedagoglarga berilyotgan imtiyozlardan yana biri milliy sertifikatga ega bo`lgan o`qituvchilarga berilyotgan ustamadir. Umumta`lim fanlaridan milliy sertifikatga ega bo`lgan o`qituvchilarga qo`shimcha ustama ham to`lanadi.<sup>2</sup> Shuningdek, o`qituvchilar bilan bir qatorda milliy sertifikatga ega bo`lgan abituriyentlarga ham davlat test sinovlarida maksimal ballga nisbatan tabaqalashtirilgan (proporsional) ball beriladi. Bu albatta ta`limga, bilimli, salohiyatli yoshlarga qaratilgan e`tibordir. 2024-2025-o`quv yilidan boshlab, avval e`lon qilinganidek ona tili va adabiyot o`qituvchilari bilan birga milliy sertifikat olgan tarix o`qituvchilariga ham 50 % lik ustama to`lanishi 2024-yilgi davlat dasturi loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo`yilgan. Albatta, katta ehtimol bilan ushbu loyiha amalyotga tatbiq etiladi.

Ta`lim tizimida, ayniqsa, xotin-qizlarning ta`lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilyapti. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo`llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora tadbirlari to`g`risida" 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni hamda "Davlat oliy ta`lim muassasalariga o`qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to`g`risida" 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qaroriga muvofiq Vazirlar Mahkamasi 2022-yil 15-avgustda 447-son qarorini qabul qiladi. Ushbu qarorga ko`ra davlat oliy ta`lim muassasalari magistraturasiga talabalikka qabul qilinib, to`lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlarning to`lov-kontrakt miqdori Davlat byudjeti mablag`lari hisobidan qoplanadi. Ta`limning magistratura bosqichida o`qishini davom ettirayotgan xotin-qizlar endilikda to`lov kontrakt haqida o`ylamasdan, ilmiy ish ustida bosh qotirishlari uchun imkoniyatdir.

To`lov-kontrakt masalasida magistraturada ta`lim olayotgan qizlar bilan bir qatorda, bakalavriatda ta`lim olayotganlarga ham bir muncha yengillik joriy qilindi. Jumladan, Davlat oliy ta`lim muassasalarining bakalavriatida to`lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar ta`lim krediti olishda imtiyozga ega bo`lishdi. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo`llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora tadbirlari to`g`risida"gi PF-87-son farmoniga muvofiq xotin-qizlarga 14 % stavkada ajratilgan ta`lim kreditining foiz stavkalarini so`ndirish Moliya vazirligi huzuridagi Ta`lim kreditini moliyalashtirish jamg`armasi mablag`lari hisobidan, ularni tijorat banklariga to`lash orqali amalga oshiriladi. Ta`lim krediti olgan qizlar faqatgina shartnomada belgilangan so`mmanigina to`lashadi. Xususan, biz ta`lim olayotgan Nizomiy nomidagi TDPU sirtqi yo`nalishining to`lov-kontrakt miqdori 7 472 630 so`m. Agarda

<sup>2</sup> Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori

biz qizlar ta'lim krediti olsak, faqat shartnomada belgilangan shu so'mmani to'laymiz. 14 % stavkadagi 1 046 168 so'm esa Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan so'ndiriladi.

14 % lik ta'lim kreditini foizsiz berish (qizlarga) katta imkoniyat. Ammo shuni ham inobatga olish kerakki, ta'lim krediti olish uchun ham davlat idoralarida ishlash talab etiladi. Ta'lim krediti olmoqchi bo'lgan talabani o'zi hali ishga joylashmagan bo'lsa, ota-onasi ham davlat idoralarida ishlamasa kredit olish uchun tashqaridan "kafil izlashga" majbur bo'ladi. Avvalo kafil topishi, topilgan kafilning oylik maoshi esa shartnomada belgilangan so'mmaga yetishi kerak. Kafil topa olmagan talaba ushbu imkoniyatdan foydalana olmaydi.

Talabani kontrakti o'z vaqtida to'lamasligi talabalar safidan chetlashtirilishiga sabab bo'ladi. Ko'plab talabalar oilaviy sharoiti, yoki boshqa sabablarga ko'ra kontrakti vaqtida to'lashga qiynaladi. Vaholanki, ularning aksariyati yuqori ballar bilan talabalikka tavsiya etilgan.

Oliy o'quv yurtiga yuqori ball bilan o'qishga kirgan, fanlardan o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan iqtidorli talabalarga tavsiyanoma asosida ta'lim krediti ajratilsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu xususida qaror qabul qilinsa va unga ko'ra oliy o'quv yurtiga maksimal balldan 70 % va undan yuqori ball bilan talabalikka tavsiya

etilgan, oliy ta'lim fanlaridan o'zlashtirishi yaxshi bo'lgan talabalarning ijtimoiy ahvoli o'rganilib, tavsiyanoma asosida kafilsiz ta'lim krediti ajratilsa juda ko'p talabalar to'lov kontrakti kechiktirmasdan o'z vaqtida to'lashga imkon yaratilgan bo'lardi.

Bugungi kunda kontrakt to'lashga qiynalayotgan talabalarning aksariyati darsdan keyin "qora ishlarda" ishlashiga to'g'ri kelyapti. Bu esa o'z navbatida ularning bilim salohiyatiga ta'sir etmay qolmaydi. Agar ta'lim krediti orqali kontrakti to'lasa, "qora ishda" ishlamasdan darsdan keyin o'z ustida ishlashi, yangi bilimlar orttirishi mumkin bo'ladi. O'qish davrida pul topish bilan emas, aksincha ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ladi. Ta'lim krediti esa o'qish tugagandan keyin yettinchi oydan boshlab yetti yil davomida oyma-oy to'lab boriladi. Bu vaqt oralig'ida talaba o'qishini tamomlab, ishga joylashadi va oylik maoshidan oyma-oy to'lab boradi.

### **Xulosa**

Ushbu taklif inobatga olinsa oilaviy sharoiti tufayli o'qishga qiynalayotgan ko'p sonli talabalarga yengillik yaratilgan bo'lardi. Bakalavrda o'qish bilan bir qatorda, ingliz tilidan xalqaro sertifikat ya'ni IELTS olib, magistraturada o'qishini davom ettira oladi. Magistratura bosqichida ta'lim olayotgan qizlarning kontrakti Davlat byudjeti hisobidan to'lanishini hisobga olsak, bema'lol ilmiy ish bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Davlat ravnaqi uchun xizmat qiladigan Yangi O'zbekistonning yosh olim va olimalari soni yanada kengayardi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Xalq soʻzi” gazetasining 2017-yil 10-avgustdagi 157-soni
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-87-son Farmoni
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish toʻgʻrisida”gi PQ-279-son qarori
4. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori